



INGLIZ BOLALAR FOLKLORIDA PARONIMLARNING QO‘LLANILISHI.

Yusupova Soxiba Islombek qizi

Ma'mun Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Bolalar og‘zaki ijodi namunalarini tadqiq qilish jarayonida paronim so‘zlarning, ya’ni talaffuzi va yozilshi o‘xshash bo‘lgan so‘zlarning qo‘llanilishi ko‘plab kuzatiladi. Paronimlar ko‘pincha bir bo‘g‘inli leksik shakllarda uchraydi va odatda undoshlarni almashtirish, unlilarni almashtirish orqali hosil bo‘ladi. Paronimlar bolalar folklori namunalarini qiziqarli va eslab qolishni oson qilishga yordam beradi. Ular shuningdek, til o‘rganishni rag‘batlantiradi, bolalarga tovushlar va ma’nolardagi farqlarni anglashga va ularning so‘z boyligini kengaytirishga yordam beradi. Ushbu maqolada ingliz bolalar folklorida paronimlarning qo‘llanilishi lingvistik jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: paronimlar, bolalar folklori, paronimik juftliklar, lingvistik ma’no, leksik birliklar.

Abstract. In the process of studying samples of children’s oral creativity, the use of paronymic words, that is, words that are similar in pronunciation and spelling, is often observed. Paronyms are often found in monosyllabic lexical forms and are usually formed by changing consonants, replacing vowels. Paronyms help make samples of children’s folklore interesting and easy to remember. They also stimulate language learning, help children understand the differences in sounds and meanings, and expand their vocabulary. This article analyzes the use of paronyms in English children’s folklore from a linguistic perspective.

Keywords: paronyms, children’s folklore, paronymic pairs, linguistic meaning, lexical units.



Аннотация. В процессе изучения образцов детского устного творчества часто наблюдается использование паронимических слов, то есть слов, похожих по произношению и написанию. Паронимы часто встречаются в односложных лексических формах и обычно образуются путем изменения согласных, замены гласных. Паронимы помогают сделать образцы детского фольклора интересными и легко запоминающимися. Они также стимулируют изучение языка, помогают детям понимать различия в звучании и значении и расширяют их словарный запас. В данной статье анализируется использование паронимов в английском детском фольклоре с лингвистической точки зрения.

Ключевые слова: паронимы, детский фольклор, паронимические пары, лингвистическое значение, лексические единицы.

Paronimlar — shakli jihatidan o‘xshash, ammo ma’nosi jihatidan farq qiluvchi so‘zlar — ingliz bolalar folklorida o‘ziga xos ahamiyatga ega hisoblanadi. Paronim so‘zi grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, ‘para’-yaqin, aloqador, ‘onoma’-ism, nom degan ma’noni anglatib, shakl jihatidan o‘xshash bo‘lgan bitta tovush bilan farqlanuvchi so‘zlarga aytiladi. Ko‘pincha faqat bitta tovush yoki harf bilan farq qiladigan bu lingvistik juftliklar, ayniqsa bolalar uchun mo‘ljallangan hikoyalar, she’r-qo‘shiqalar va og‘zaki folklor namunalarida ko‘plab uchraydi. Lingvistik rivojlanish vositasi sifatida xizmat qiladigan bolalar folklori namunalarida paronimlar folklor namunalarining esda qolarligini oshiradi. Bundan tashqari, paronimlardan foydalanish folklorning kengroq pedagogik vazifasini aks ettiradi. Bolalarni bir xil, ammo ma’nosi jihatidan farqli so‘zlar bilan tanishtirish orqali fonologik ongini rivojlantirishga va so‘z boyligini farqlashga o‘rgatiladi.

Ushbu maqolada paronimlarning ingliz bolalar folklorida qo‘llanilishi, ularning lingvistik ahamiyati tahlil qilinadi. Tanlangan bolalar folklori namunalarini tahlil qilish orqali paronimlar bolalarning so‘z boyligini oshirishga xizmat qiladigan maqsadli elementlar ekanligini ko‘rsatishga qaratilgan.



Paronimlarni o'rganish leksikologiya, semantika va stilistika sohalariga tegishli. Biroq, paronimlar sinonimlar yoki antonimlar kabi boshqa so'z guruhlari kabi ko'p o'rganilmagan. Taniqli tilshunos Devid Kristal paronimlarni shakli o'xshash, ammo turli ma'nolarga ega bo'lgan so'zlar deb ta'riflaydi¹. Ma'nolari bir-biriga o'xshash so'zlar², talaffuzi o'xshash, yaqin bo'lsa-da, aynan bir xil bo'lmagan, ma'nolari har xil so'zlar³, talaffuzi yaqin bo'lsa ham, ma'nolari boshqa-boshqa bo'lgan so'zlar⁴, aytilishi va yozilishi yaqin, ammo ma'nolari har xil so'zlar⁵ni paronimlar deb ta'riflashgan.

Rus tilshunosligida rus tili paronimlariga to'liq, atroflicha ta'rif O.V.Vishnyakova tomonidan berilgan. Uning ta'rificha, paronimlar – o'xshash talaffuz qilinsa-da, ma'nosida o'xshashlik bo'lmagan bir xil asosli, urg'usi bir bo'g'inga tushadigan, bir mantiqiy qatorga – bir turkumga mansub (fe'l turkumga mansub, bir vidga tegishli), bir tushunchani anglatadigan, farqi esa qo'shimcha leksik ma'no nozikliklari bilan ifodalanadigan va fikriy aniqlik kiritish uchun xizmat qiladigan so'zlardir. Bu ta'rifda paronimlarning fonetik, grammatik va ma'noviy xususiyatlari aks etgan⁶.

Akademik A.Hojiyevning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da paronimlar: fonetik tarkibi boshqa-boshqa, talaffuzdagina o'xshash, yaqin bo'lib qoladigan so'zlar; paronimiya: fonetik tuzilishi boshqa-boshqa so'zlarning talaffuzi o'xshash, yaqin bo'lib qolish hodisasi⁷ deb ta'riflangan. Prof. N.Mahmudov paronimlar o'zbek tilida talaffuzi jihatdan o'xshash (bir xil emas), ammo boshqa-

¹ David Crystal, A Dictionary of Linguistics and Phonetics, Blackwell publishers, p.351

² Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М., 1947. – С.33.

³ Гвоздев А.Н. Очерки по стилистике русского языка. 2-е изд. – М., 1955. – С.72.

⁴ Розенталь Д.Э. Практическая стилистика русского языка. – М., 1974. – С.68.

⁵ Введенская Л.А., Дыбина Т.В., Шеболева И.И. Современный русский литературный язык. Лексика, фонетика. – Ростов, 1963. – С. 131.

⁶http://literary.ru/literary.ru/show_archives.php?subaction=showfull&id=1207132603&archive=1207225892&start_from=&ucat=&

⁷Хожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2002. –Б.80.



boshqa ma'noga ega bo'lgan so'zlar ekanligini, ular fonetik jihatdan bir-ikki tovushga ko'ragina farqlanishini ta'kidlagan⁸.

Ingliz bolalar folklorida Iyona va Pitr Opilar bolalar she'r va qo'shiqlarida turli xil lingvistik vositalar bilan bir qatorda paronimlarning qo'llanilishini tahlil qilganlar.

Ingliz bolalar folklori tahlili shuni ko'rsatadiki, paronimlar samarali va ko'p funksiyali lingvistik vosita sifatida ishlatiladi. Bolalar qo'shiqlari, xalq ertaklari va og'zaki matnlardan to'plangan misollar shuni ko'rsatadiki, paronimlar tovush o'xshashligi, takrorlanishi va ritmi muhim bo'lgan matnlarda ko'plab uchraydi.

Paronimlar eng ko'p tez aytishlarida hamda bolalar qo'shiqlarida ishlatiladi. Ushbu matnlarda pick-pack, sing-song, tick-tock kabi o'xshash shakllarga ega so'zlar qo'shiq matnini bolalar uchun yanada qiziqarli qiladi. Bu fonetik o'xshashlik yodlashni osonlashtiradi. Shuningdek, paronimik juftliklar fonologik ongini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. O'xshash tovushli so'zlar bilan tanishish bolalarga talaffuz va so'z ma'nosidagi farqlarni ajratishga yordam beradi. Bu esa talaffuzni yaxshilash va so'z boyligini kengaytirishga yordam beradi.

Ingliz bolalar folklorida paronimik juftliklarning tez aytishlarda hamda o'yin qo'shiqlarida keng qo'llanilishini kuzatishimiz mumkin. Masalan:

1. "Peter Piper picked a peck of pickled peppers", ushbu tez aytishda "pick" va "peck" so'zlari o'zaro paronim munosabatni shakllantirgan.
2. "A proper copper coffee pot" tez aytishida "proper" va "copper" so'zlari o'zaro paronimdir.
3. "Betty Botter bought some butter", bunda "Botter" hamda "butter" so'zlari paronimdir.

⁸ Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. Бакалавриятнинг "Ўқитувчилар тайёрлаш ва педагогика фани" билим соҳаси талабалари учун дарслик. –Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. –Б.102.



4. “Sing a song of sixpence”, bunda “sing” va “song” so‘zlari paronim juftlik sifatida qo‘llanilgan.
5. “Hickory dickory dock”, ushbu qo‘shiqdan parchada “hickory” va “dickory” so‘zlari o‘zaro paronim bo‘lib kelgan.
6. “Humpty Dumpty sat on a wall”, bunda paronim so‘zlar – “Humpty” va “Dumpty”
5. Hey diddle diddle, the cat and the fiddle”, bunda diddle va fiddle so‘zlarini paronimik juftliklar sifatida keltirishimiz mumkin.

Ingliz bolalar folklori tahlili shuni ko‘rsatadiki, paronimlar bolalar she‘r va qo‘shiqlarida, tez aytishlarda muhim rol o‘ynaydi. Ularning ishlatilishi tasodifiy emas; aksincha, paronimlar bolalar folklori namunalarining musiqiyliigi, esda qolarliligi va o‘ynoqi tabiatiga hissa qo‘shadi. Tovush va shakldagi ozgina o‘zgarishlar orqali paronimlar ritm, alliteratsiya va qofiya yaratadi, bu esa yosh tinglovchilarga qiziqarli bo‘ladi, ularni osonroq eslab qolishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, paronimlar ingliz bolalar folklorida muhim lingvistik vosita hisoblanadi. Ular shakl va ma’no o‘xshashligi bilan xotirani mustahkamlash, til rivojlanishini rag‘batlantirish va yosh auditoriyaning madaniy va adabiy tajribasini boyitish yo‘llari bilan bog‘laydi. Kelajakdagi tadqiqotlar zamonaviy bolalar adabiyotida paronimlardan foydalanishni o‘rganish va tillararo taqqoslash orqali ushbu tadqiqotni kengaytirishi mumkin, bu esa paronimlarning hikoya qilish va til o‘rganishdagi doimiy ahamiyatini yanada ta’kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. David Crystal, A Dictionary of Linguistics and Phonetics, Blackwell publishers, p.351
2. Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М., 1947. – С.33.



3. Гвоздев А.Н. Очерки по стилистике русского языка. 2-е изд. – М., 1955. – С.72.
4. Розенталь Д.Э. Практическая стилистика русского языка. – М., 1974. – С.68.
5. Введенская Л.А., Дыбина Т.В., Шеболева И.И. Современный русский литературный язык. Лексика, фонетика. – Ростов, 1963. – С. 131.
6. http://literary.ru/literary.ru/show_archives.php?subaction=showfull&id=1207132603&archive=1207225892&start_from=&ucat=&
7. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б.80.
8. Махмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. Бакалавриятнинг “Ўқитувчилар тайёрлаш ва педагогика фани” билим соҳаси талабалари учун дарслик. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. –Б.102.